

Maxmudov Muhammadsodiq

Mustaqil izlanuvchisi (PhD),

Namangan davlat universiteti

Namangan, O‘zbekiston Respublikasi

SHOHIMARDON TURIZM IMKONIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Shohimardon anklavini rivojlantirishda turizmnинг аҳамияти юритилган. Hududda joylashgan 174 ta turizm obyekti Shohimardonga o‘ziga xos joziba bag‘ishlayotgani qayd etilgan va ekoturizm, agroturizm hamda ziyorat turizmi bo‘yicha imkoniyatlar tahlil qilingan. Shuningdek, hududni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilayotgani va qo‘sni davlat bilan aloqalarning yanada mustahkamlanayotgani ta’kidlangan.*

Kalit so‘zlar: *Shohimardon, anklav, turizm, ziyorat turizmi, infratuzilma, trekking.*

Maxmudov Mukhammadsadik

Independent Researcher (PhD),

Namangan State University

Namangan, Republic of Uzbekistan

TOURISM OPPORTUNITIES IN SHAKHIMARDAN

Annotation. *The article explores the significance of tourism in the development of the Shakhimardan enclave. It highlights the unique appeal of the 174 tourism sites located in the region, which contribute to the distinct charm of Shakhimardan. The potential for ecotourism, agritourism, and pilgrimage tourism in the area has been analyzed. Additionally, the article discusses the growing attention being paid to the region’s development and the strengthening of relations with the neighboring state.*

Keywords: *Shakhimardan, enclave, tourism, pilgrimage tourism, infrastructure, trekking.*

Kirish. Turizm so‘nggi yillarda dunyo iqtisodiyotida eng tez rivojlanayotgan va ahamiyati ortib borayotgan sohalardan biriga aylandi. Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) ma’lumotlariga ko‘ra, turizm jahon yalpi ichki mahsulotining 10 foizdan ortig‘ini tashkil etib, har yili millionlab ish o‘rinlari yaratmoqda. Shu bilan birga, turizm nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy, madaniy va ekologik omillarga ham katta ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston kabi tarixiy-madaniy boy merosga ega davlatlarda turizm iqtisodiy barqarorlikka erishish va xalqaro maydonda davlat imijini shakllantirish uchun strategik ahamiyatga ega. Xususan, mamlakatning sharqiy qismi – go‘zal Farg‘ona vodiysida turizm salohiyatidan foydalanish katta

ahamiyatga ega. Xususan, mintaqaning eng turistik obyektlari ko‘p hududi – Farg‘ona viloyatining bu boradagi salohiyatini yanada rivojlantirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 3-oktabrdagi “Farg‘ona viloyatining turistik salohiyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 843-sonli Qarori qabul qilindi [13]. Bu qaror qabul qilinishi esa viloyatning turistik salohiyatini yanada rivojlantirishga imkoniyat yaratib berdi. Ushbu qarorga muvofiq, Farg‘ona viloyati hokimligi huzurida o‘ziga xos periferik hududga yo‘naltirilgan davlat muassasasi shaklidagi “Shohimardon turizmni rivojlantirish direksiyasi” tashkil etildi. Direksianing asosiy vazifalaridan biri – Farg‘ona tumaniga qarashli “Shohimardon” va “Yordon” MFYlarda turizmni rivojlantirish bo‘yicha konsepsiya ishlab chiqish va amalga oshirilishini ta’minlashdir. Ushbu mahalla fuqarolar yig‘inlarining turizm salohiyatini inobatga olgan holda, yangi turizm yo‘nalishlarini joriy qilish ustuvor ahamiyatga ega. Direksiya tomonidan o‘tgan vaqt mobaynida Shohimardon hamda Yordon mahalla fuqarolar yig‘inlarida jami 174 ta turizm obyektlari ro‘yxati shakllantirilgani qayd etilgan [9].

Ishning **maqsad va vazifalari**. Ushbu maqolaning **maqsadi** Shohimardon turistik salohiyatini geografik jihatdan baholash bo‘lib, ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi **vazifalar** belgilab olingan:

- Shohimardon anklavidagi ekoturizm, agroturizm va ziyorat turizmi obyektlarini tavsiflash;
- turizmni rivojlantirish omillarini tahlil qilish.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Ushbu maqolada periferik tahlil, SWOT-tahlil, monografik tahlili, geografik taqqoslash hamda ekologik monitoring usullaridan foydalanilgan.

Shohimardon qishlog‘i – O‘zbekistonning eng o‘ziga xos anklav hududlaridan biri hisoblanadi. Tabiiy va rekreatsion salohiyatga boy bo‘lsa-da, bu hududni ilmiy o‘rganish bo‘yicha manbalar yetarlicha emas. Hudud haqida mavjud ma’lumotlarning aksariyati ijtimoiy tarmoqlardagi qisqacha publisistik sharhlar bilan cheklangan. Bu holat Shohimardonning turizm sohasidagi jozibasini to‘liq ochib berish va ilmiy jihatdan o‘rganishga to‘sinqilik qiladi. Hududni ilmiy o‘rganish faqat turizmni rivojlantirishga emas, balki Markaziy Osiyodagi anklavlар tadqiqoti sohasida yangi nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu asosda, Shohimardon mintaqaviy turizm markazi sifatida o‘z o‘rnini mustahkamlay oladi.

Aytish lozimki, Markaziy Osiyo mamlakatlari mustaqillikka erishgach, chegaralar ajratish funksiyasini “mustahkam” bajara boshlagan. Jumladan, o‘zbek-qirg‘iz chegara mojarolari sabab Shohimardonga kirib-chiqishda ham

muammolar yuzaga kelgan. Shu xususida, yevropalik olim B.Fazendeiro O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi chegaralar va millatchilik jarayonlarini taqdid qilgan. Chunonchi, Farg'ona vodiysi kabi hududlar aholisi bu yerda ikki davlat o'rtasidagi chegaraviy chiziqning qanday hissiyotlar va konfliktlarni keltirib chiqarishi haqida so'z yuritadi [4]. Professor N.Megoran Markaziy Osiyo hududidagi anklavlar va chegaralar masalalariga alohida e'tibor bergan. Jumladan, olim "Natsionalizm in Central Asia: A Biography of the Uzbekistan-Kyrgyzstan Boundary" kitobida O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi chegara va anklav hududlaridagi geosiyosiy vaziyatni batafsil yoritib bergan. Megoran geografik jihatdan, chegara va anklavlarning milliy va etnik identifikatsiya yaratishda qanday o'rin tutishini o'rganadi [8]. A.Alao esa o'zining ishlarida, ayniqsa, anklav hududlarning milliy, etnik va siyosiy jihatlari bilan bog'liq masalalarini o'rgangan [3].

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida anklav hududlarning siyosiy va ijtimoiy holatini tahlil qilish yuzasidan ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bu sohada o'rganishlar, asosan, anklavlarning geosiyosiy va iqtisodiy ahamiyati, ular bilan bog'liq territorial nizolar va milliy identifikatsiya masalalariga qaratilgan. Xususan, S.Juravskiy, T.Zverinseva, Y.Rojkov-Yuryevskiy, V.Zaysev [11], Y.Rojkov-Yuryevskiy kabi tadqiqotchilar anklav/eksklav hududlar, ayniqsa, tarixiy va siyosiy jihatdan ajratilgan mintaqalar borasida izlanishlar olib borishgan. Ayniqsa, Y.Vinokurovning tadqiqotlari, geografik jihatdan o'zaro ajratilgan va siyosiy nuqtayi nazardan maxsus ahamiyatga ega bo'lgan hududlarni, masalan, Kaliningrad, Prussiya va Sharqiy Prussiyani o'rganishga qaratilgan. Bu hududlar tarixiy tarzda cheklangan va boshqa davlatlar bilan chegaralar orqali bog'langan [10].

Yurtimizda mavzuga oid tadqiqotlar A.S.Soliyev, F.F.Tolipov, Y.I.Ahmadaliyev, A.A.Ibragimova, Sh.Z.Jumaxanov, A.M.Toshpo'latov ilmiy ishlarida atroficha yoritib berilgan. Xususan, Sh.Z.Jumaxanov "Markaziy Osiyo anklav/eksklav hududlarini iqtisodiy geografik va siyosiy geografik tadqiq etishning metodologik asoslari" nomli doktorlik dissertatsiyasida anklav va eksklav hududlarning geosiyosiy holati, ular o'rtasidagi siyosiy aloqlar, shuningdek, hududiy resurslar va iqtisodiy imkoniyatlarni tahlil qilishga qaratilgan yondashuvlar ko'rsatilgan. Tadqiqotda, Markaziy Osiyo mintaqasidagi anklavlarda yuzaga keladigan muammolar o'rganilgan [5]. Tadqiqotchi A.M.Toshpo'latovning ilmiy ishlarida ham anklav hududlar, xususan, So'xning geosiyosiy va geoijtisodiy jihatlari tahlil qilingan [7]. Shuningdek, N.Abdulahatov [1,2], T.G'oziyev, F.Zohidov tomonidan olib

borilgan tadqiqotlarda Shohimardon qishlog‘ining turistik maskanlari va ularning tarixi ochib berilgan.

Natijalar va muhokama

Tahlil uchun olingan tadqiqot obyekti mansub bo‘lgan Farg‘ona viloyati hududida hozirgi kunda 376 ta turistik obyekt ro‘yxatga olingan. Shundan 117 ta arxeologik yodgorliklar, 139 ta arxitektura yodgorliklari, 88 ta diqqatga sazovor joylar hamda 32 ta monumental yodgorliklar shular jumlasidandir [7].

Viloyatda mavjud obyektlardan biri – Shohimardon – O‘zbekistonning noyob tabiiy go‘sralardan biri bo‘lib, “O‘zbekiston Shveysariysi” nomini olgan. U Farg‘ona vodiysining janubidagi anklav geografik joylashuvga ega. Bu go‘zal maskan qadimiy tarix, boy madaniyat va muqaddas qadamjoylar bilan sayyoohlarni o‘ziga jalb qiladi. Shohimardonning tog‘ yonbag‘irlari, sharqirab oqayotgan zilol daryolari va ekologik toza havosi nafaqat mahalliy aholi, balki xorijlik mehmonlar uchun ham maftunkor dam olish joyiga aylangan. Shohimardon hududi yillik tashrif buyuruvchilar soni bo‘yicha katta salohiyatga ega. Bu joy, ayniqsa, Oqsuv va Ko‘ksuv daryolari qo‘shiladigan ajoyib maskanlari bilan ajralib turadi. Ayniqsa, yoz oylarida salqin ob-havo va toza tog‘ havosi tufayli ko‘plab sayyoohlар bu joyni dam olish va tabiat qo‘ynida vaqt o‘tkazish uchun tanlashadi. Umuman olganda, hududning ekoturistik salohiyati juda yuqori hisoblanadi.

Ekoturizm (yashil turizm) – antropogen ta’sirga nisbatan ta’sirlanmagan tabiiy hududlarga tashrif buyurishga qaratilgan barqaror turizmning bir yo‘nalishi [12] bo‘lib, Shohimardonda ekoturizmni rivojlantirish uchun tabiiy obyektlar juda katta ahamiyatga ega. Ular sayyoohlар uchun sog‘lomlashtirish va dam olish maqsadida foydalaniladigan maskanlar hisoblanadi.

Anklavda ko‘plab turistik obyektlar joylashgan. Jumladan, *Jannat Ariq* Shohimardonning mashhur tabiiy buloqlaridan biri bo‘lib, undan toza va shifobaxsh suv oqib keladi. Bu suv mahalliy aholi va sayyoohlар orasida davo sifatida tan olingan. Buloq atrofidagi go‘zal manzara, tinch muhit va toza havo sayyoohlarni jalb qiluvchi asosiy omillardandir. Ahamiyatlisi shundaki, *Jannat Ariq* shifobaxsh suv sifatida tan olingan. Bu joy tabiat qo‘ynida dam olish va stressdan xalos bo‘lish uchun qulay maskan hisoblanadi. *Jannat Ariq* deb nomlanishiga suvning musaffoligi, ariq atrofidagi yashil daraxtzorlar va tog‘ manzarasi bu joyni jannatga qiylashtiradi [1].

Qurbanko l’ tog‘lar orasida joylashgan kichik, lekin chiroyli ko‘l bo‘lib, uning suvi sof va tozadir. Ko‘lning atrofidagi o‘tloqlar va tog‘ manzaralari sayyoohlarga dam olish va tabiatdan zavqlanish uchun mukammal sharoit yaratadi. Ko‘lning ahamiyatli jihatlari dam olish va piknik uchun mos.

Shuningdek, tabiatning boy biologik xilma-xilligini o'rganish imkonini beradi. Ekoturizm va trekking faoliyatini rivojlantirish uchun ideal joy hamdir. Ko'kko'l kelgan sayyoohlар uchun mashhur to'xtash joylaridan biridir. Ko'lga olib boruvchi yo'llar tog'li va manzarali bo'lib, sayohatchilar uchun ta'riflangandan-da jozibadordir. Ko'l atrofida pikniklar, suzish va fotosuratga olish uchun joylar tashkil etilgan.

Yordon qishlog'idagi *Ikki dovon* daryosi, ba'zan Mashalang daryosi deb ham ataladi. Tabiatni sevuvchilar va ekoturizmga qiziqqanlar uchun daryo bo'yab sayohatlar, pikniklar va tog' sayrlari tashkil etish mumkin. Bu yerda mashhur bo'lgan *Dugoba* fors tilida ikki so'zdan tashkil topgan "du" – ikki, "Goba" yoki "g'uba" – yashil hududni bildiradi [2]. Dugoba bo'yab tog'larda yurish va tabiatni tomosha qilish imkoniyati va tog' velosipedlariga qiziqqanlar uchun bu joy katta imkoniyatlar taqdim etadi.

Shohimardon hududi, tog'li va kutilmagan manzaralari bilan **alpinizm va tog' turizmi** uchun juda qulay joy hisoblanadi. Ushbu hududda alpinizmning rivojlanishiga bir qator tabiiy va ijtimoiy omillar ta'sir qiladi. Alpinizm – bu faqat jismoniy kuchni talab qiladigan sport turi emas, balki o'zining mental va ruhiy jihatlari bilan ham ahamiyatga ega. Shohimardon hududi, alpinizmni rivojlantirish uchun bir qator imkoniyatlar yaratadi. Shohimardon tog'lari o'zining balandligi, qiyaliklari va tabiiy resurslari bilan alpinistlar uchun yaxshi imkoniyatlar yaratadi. Hududdagi Qiziltog', Dugoba, G'altin, Xurjun va Qora Sho'ra tog'lari tog' sporti bilan shug'ullanish uchun maqbul joylardir [9]. Bu tog'larda alpinistlar uchun turli darajalar va qiyinchiliklarga ega yo'llar mavjud, bu esa yangi boshlovchilar va tajribali alpinistlar uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Hududda tog' turizmi va alpinizmni rivojlantirishda *Mashalang* va *Dugoba* tog'lari o'rni beqiyosdir. Mashalang tog'lari qishloqlardan nisbatan uzoq joylashgan bo'lib, tog' etaklarida lager tashkil qilish uchun qulay. Tog'larda qiyin bo'lмаган, boshlovchilar uchun mos yo'nalishlar mavjud. Bu joy tog' sportiga yangi qadam qo'yuvchilar uchun juda mos. Dugoba tog' lageri Qirg'izistonning O'zbekiston anklavi bo'lgan Shohimardon, shuningdek, Batken viloyatining Qadamjoy shahri yaqinida joylashgan. Obyekt archa o'rmonlari, qoyali va qirrali cho'qqilar bilan o'ralgan [14]. Dugoba tog'lari ancha yillardan buyon alpinizmga qiziquvchilarni o'ziga chorlab kelmoqda. Bu hududda Sobiq Ittifoq davrida alpinistlar lageri bo'lgan. Hozirgi kunda O'zbekiston va Qirg'iziston "Dugoba" alpinistlar lagerini tiklashni rejalashtirmoqda [15].

Agroturizm bo'yicha hudud yetarli imkoniyatlarga ega. Dam oluvchilarning ko'pchiligi tog' o'rmonlariga chiqishni afzal ko'rishadi. Chunki

bu joylarda nafaqat tabiiy go‘zallikdan bahramand bo‘lish, balki shifobaxsh o‘simliklarni to‘plash imkoniyati ham mavjud. Shohimardon hududi, ayniqsa, Yordon qishlog‘i atrofi tog‘li va o‘simlik qoplami zikh bo‘lib, bu yerda dalachoy (*Orthosiphon stamineus*), na’matak (*Hypericum perforatum*), zveroboy (*Achillea millefolium*), kiyik o‘ti (*Teucrium chamaedrys*), tog‘ rayhoni (*Thymus serpyllum*) va zira (*Cuminum cyminum*) kabi dorivor o‘simliklar keng tarqalgan. Ushbu o‘simliklar, ularning davolovchi xususiyatlari bilan tanilgan. Ayniqsa, to‘g‘ri qo‘llanilganida turli kasalliklarni davolashda samarali bo‘ladi. Yordon qishlog‘ining Qiziltog‘, Dugoba, G‘altin, Xurjun va Qora sho‘ra tog‘larida bu dorivor o‘simliklar tabiiy ravishda o‘sadi [9]. Ushbu tog‘lar o‘zining ekologik tozaligi va o‘ziga xos bioxilma-xilligi bilan ajralib turadi, bu esa sayyoohlar va dam oluvchilarni jalb qilishda asosiy omil hisoblanadi. Dam olish maskanlari va aholi turar joylari Yordon qishlog‘ida joylashgani sababli, ko‘pchilik sayyoohlar bu yerda qo‘nim topadi. Qishloqdagi dam olish joylari sayyoohlar uchun qulaylik yaratib, tog‘da sayr qilish, dorivor o‘simliklar terish va tabiat bilan yaqin aloqada bo‘lish imkoniyatini taqdim etadi.

Shohimardon va Yordon qishloqlarida joylashgan ziyoratgohlar va muqaddas joylar **ziyorat tuzimi** uchun keng imkoniyatlar yaratgan. Ular orasida bir qator mozorlar, qadamjoylar va tarixiy obidalar mavjud bo‘lib, ularning har biri o‘zining alohida tarixiga ega. Jumladan, *Ellik paysaki* [1] Shohimardon qishlog‘ida joylashgan bo‘lib, o‘zining ajoyib tabiat va diniy ahamiyati bilan sayyoohlarni jalb etadi. Bunday joylar, mahalliy aholi uchun nafaqat ma’naviy o‘zlikni anglash, balki tabiat bilan uyg‘unlashish imkoniyatini ham yaratadi. *Ko‘ktosh* muqaddas va diniy e’tiqodlar asosida ziyorat qilinadigan joylardan biridir va bu joyga kelganlar o‘zlarini ruhiy tinchlik va huzur topgan, deb his qiladilar. *Shoh Tolib* (Kichik mozor) maqbarasining tarixiy va diniy ahamiyati katta [2]. Bu mozor Shohimardonning qadimiy va diniy merosini saqlab kelayotgan joylardan biridir. Ko‘plab ziyoratchilar bu joyga kelib, diniy marosimlarni o‘tkazadilar. *Hazrat Ali maqbarasi* islom tarixidagi buyuk shaxs bo‘lgan Hazrat Ali ibn Abu Tolibning yodgorliklari bo‘lib, musulmonlar uchun juda muqaddas ziyoratgoh hisoblanadi [1]. Ul zot Muhammad (s.a.v.) payg‘ambarning jiyani, islom sultanatining to‘rtinchi xalifasi va bo‘lib, uning mozoriga tashrif buyurish, nafaqat diniy, balki ma’naviy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. *Umar Umiya mozori* ham Shohimardon qishlog‘ida joylashgan. Bu mozor islom tarixinining o‘ziga xos shaxslaridan biri bo‘lgan Umar Umiyaga bag‘ishlab bunyod etilgan. Lekin tarixiy manbalarda bu ulug‘ zotlar bizni diyorlarga kelganligi haqida ma’lumotlar yo‘q. Faqatgina xalq orasida turli rivoyatlar saqlanib qolgan. *Chakka tomar* bulog‘i ham diniy ahamiyatga ega

ziyoratgoh sifatida mashhur. Ushbu joyning chiroyli tabiatni va o‘ziga xos hududi ko‘plab sayyoohlarni o‘ziga jalb etadi [1].

Yordon qishlog‘i o‘zining diniy obidalar va ziyoratgohlari jihatidan Shohimardon bilan uzviy bog‘langan. Chunonchi, *Tosh solar* ziyoratgohi o‘zining muqaddasligi bilan tanilgan joylardan biridir. Bu yerda mahalliy aholi va ziyoratchilar diniy marosimlarni o‘tkazadilar. *Yordon ota mozori* ham qishloqdagagi muhim ziyoratgohlardan biridir. Bu joyda ziyorat qilish, mahalliy aholi tomonidan katta hurmatga sazovor bo‘lgan va ziyoratchilar uchun ma’naviy poklanishga erishish imkoniyatini beradi. *Archa mozor* ziyoratgohi Yordon qishlog‘idagi yana bir muhim diniy joy bo‘lib, sayyoohlarni va ziyoratchilar uchun o‘ziga xos joydir. Bu joyning ruhiy ahamiyati, ziyoratchilar uchun katta o‘ringa ega. Qizqo‘rg‘on ziyoratgohi ham Yordon qishlog‘ining muhim diniy va madaniy markazlaridan biri hisoblanadi (1-jadval). Bu joy ham o‘zining diniy ahamiyati va tarixiy merosi bilan e’tirof etiladi [1].

1-jadval

Shohimardon turizm yo‘nalishlari va obyektlari

Turizm yo‘nalishlari	Ekoturizm	Tog‘ turizmi va alpinizm	Agroturizm	Ziyorat turizm
Mavjud obyektlar	Jannat ariq, Qurbanko‘l, Ko‘kko‘l; Ikkidovon (Mashalang) daryosi, Dugoba	Ispasar, Dugoba, G‘altin, Oynako‘l, Qiziltog‘, Shalang, Xurjun, Qora sho‘ra, Mashalang tog‘lari	Qiziltog‘, Dugoba, G‘altin, Xurjun, Qora sho‘ra kabi tog‘lardagi <i>dalachoy</i> , <i>na’matak</i> , <i>kiyik o‘ti</i> , <i>tog‘ rayhoni</i> , <i>zira kabi dorivor giyoqlar</i>	Ellik paysaki tosh, Ko‘ktosh, Shoh Tolib mozori, Hazrat Ali mozori, Umar Umiya mozori, Chakka tomor, Archamozor, Tolmozor, Toshmozor, Belmozor, Zirkmozor; <i>Tosh solar</i> ziyoratgohi, <i>Yordon ota mozori</i> , Qizqo‘rg‘on
Maqsadi	Shifo topish	Alpinizm	Tabiiy va shifobaxsh dorivorlardan tatif ko‘rish	O‘tganlarni xotirlash va haqqiga duo qilish

Shohimardon va Yordon qishloqlarida turizmni rivojlantirish mintaqaning iqtisodiy va ijtimoiy o‘sishiga katta hissa qo‘shadi. Hududning tabiiy, tarixiy va madaniy imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanish nafaqat mahalliy aholining turmush darajasini yaxshilashga, balki O‘zbekiston turizm salohiyatini xalqaro miqyosda tanitishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, hududda infratuzilma va

xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, ekologik muhofaza choralarini kuchaytirish muhimdir.

Anklavdagi farovonlik, tabiiyki, asosiy va o'rabi turuvchi davlatlar munosabatlariga bog'liq. Agar bu munosabatlar anklavga bevosita aloqador bo'limgan masalalar bo'yicha yomonlashsa ham, anklavga salbiy bosim kuchayadi. Aksincha, davlatlar o'rtasidagi tinch va do'stona munosabatlar anklav uchun qulay muhit yaratadi [6].

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasida diplomatiya munosabatlari xalqaro darajaga ko'tarildi. 1996-yil 24-dekabrda ikki davlat o'rtasida imzolangan "Abadiy do'stlik to'g'risida"gi Sharhnomalar o'rtasidagi munosabatlarning sharhnomaviy-huquqiy asosi hisoblanadi. 1999-yili dinni niqob qilib olgan qurolli bo'linmalar Tojikiston hududidan Qirg'iziston hududi orqali Farg'ona vodisiga kirishga uringan, biroq qirg'iz maxsus kuchlari tomonidan to'xtatilgan [5]. Shundan so'ng O'zbekiston hukumati chegaranining tog'li qismlarini, jumladan, Shohimardon atrofidagi hududlarni minalashtiradi va anklavlarga kirish cheklandi. Qirg'iziston tomonidan anklavlar hududiga Farg'ona viloyati aholisi uchun bir martalik ruxsatnomalar, O'zbekistonning boshqa fuqarolari uchun esa viza rejimi joriy etiladi. Bunday noxush holat ikki davlat o'rtasidagi do'stona munosabatlarga putur yetkazishiga sabab bo'ladi. 2007-yilning bahorida O'zbekiston va Qirg'iziston hukumatlari ikki davlat fuqarolariga ikki oygacha vizasiz sayohat qilish imkonini beruvchi kelishuvni ratifikatsiya qiladi [6].

Hozirgi kunda Xalqaro kuzatuvchilar O'zbekiston rahbariyati Markaziy Osiyoni tashqi siyosatning ustuvor yo'nalishi sifatida e'lon qilgan holda, 2017-yilda bu borada amaliy qadamlar tashlanganligini alohida e'tirof etishmoqda. Xususan, o'tgan yillar mobaynida ikki mamlakat hamkorligining sharhnomaviy-huquqiy asosi yana 25 ta hujjat bilan boyidi. Ular orasida O'zbekiston Respublikasi bilan Qirg'iziston Respublikasi o'rtasida strategik sheriklik, do'stlik, ahil qo'shnichilik hamda ishonchni mustahkamlash to'g'risida deklaratsiya va o'zbek-qirg'iz davlat chegarasi to'g'risidagi sharhnomani alohida ko'rsatib o'tish mumkin [14].

«Farg'ona — Shohimardon» yo'nalishi bo'yicha avtobuslar qatnovi 2013-yilning avgust oyida to'xtagandi. 2017-yil 25-apreldan boshlab Farg'ona viloyati hokimining shaxsiy tashabbusi bilan agentlikning viloyat bo'limi hamkorligida ushbu yo'nalishda qatnov qayta yo'lga qo'yildi [15]. 2019-yilda oktabr oyida Farg'ona viloyatining turistik salohiyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida Hukumat qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq, Farg'ona viloyati hokimligi huzurida davlat muassasasi shaklidagi

“Shohimardon” turizmni rivojlantirish direksiyasi tashkil etildi. Keyinroq, 2023-yil oktabr oyida Farg‘ona viloyati hokimi Shohimardonga tashrif buyurib, bu yerdagi amalga oshirilayotgan ishlar ko‘lamini kengaytirish yuzasidan loyihalar taklif etadi [14].

Shohimardon va Yordon mahalla fuqarolar yig‘inlari hududini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan loyihalar anklavning madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy qiyofasini yanada yaxshilashga qaratilgan. Shohimardondagi memorial muzeyni ta’mirlash jarayonida nafaqat bino va jihozlar yangilanadi, balki muzeyning ekspozitsiyalarini kengaytirish va zamonaviy texnologiyalar bilan boyitish ko‘zda tutildi. Muzeyda raqamli ekranlar, interaktiv ko‘rgazmalar va virtual realistik dasturlar orqali Shohimardonning tarixi va o‘ziga xosliklarini aks ettirish ko‘zda tutilgan [14].

Ziyoratgohlar va ularga tutash hududlarni obodonlashtirishda ziyoratgohlar orasida eng mashhuri Hazrati Ali maqbarasining infratuzilmasini yaxshilash, shu jumladan, ziyoratchilar uchun maxsus yotoq joylari, dam olish maskanlari va ovqatlanish shoxobchalari barpo etish nazarda tutilgan. Shuningdek, hududda kichik ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish orqali yangi ish o‘rinlari yaratiladi. Xususan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarish va milliy suvenirlar tayyorlash yo‘lga qo‘yiladi.

Qolaversa, olib borilayotgan islohot va tashabbuslar orqali turistlar uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida asosiy yo‘llarni kengaytirish, yo‘l belgilari va ko‘rsatkichlarini o‘rnatish, zamonaviy yoritish tizimlari joriy etiladi. Hududga tashrif buyuruvchilar uchun maxsus avtoturargohlar va transport vositalarini ijaraga berish xizmatlari yo‘lga qo‘yiladi. Hududda chiqindi yig‘ish va utilizatsiya qilish xizmatlarini takomillashtirish bo‘yicha maxsus dastur ishlab chiqilmoqda. Bu dastur doirasida qayta ishlash imkoniyati mavjud chiqindilarni ajratish uchun alohida qutilar o‘rnataladi. Shohimardonda turizmni rivojlantirish maqsadida yangi mehmonxona va dam olish maskanlari quriladi. Mahalliy aholining qo‘l mehnatini jalb etgan holda, sayyoohlar uchun ekskursiyalar va mahalliy madaniyatni tanishtiruvchi dasturlar yo‘lga qo‘yiladi.

Mazkur loyihalar hududning turizm salohiyatini oshirish bilan birga, mahalliy aholining turmush darajasini ham yaxshilashga qaratilgan. Bunday islohotlarda so‘ng investorlar ham Shohimardonda turizmini rivojlanrishga qiziqishi ortib bormoqda. Chunonchi, 2024-yil iyun oyida Farg‘ona viloyati hokimi Fransianing Montagne et Neige Développement (MND) kompaniyasi hududiy direktori hamda kompaniyaning mahalliy hamkorlarini qabul qildi. Uchrashuvda Arqon yo‘l va osma ko‘priklarni o‘z ichiga olgan ommaviy turizm

maskani barpo etish loyihasi muhokama qilindi. Shuningdek, viloyat hokimining taklifi bilan ushbu turistik maskanni Shohimardon qishlog‘ida tashkil etish ustida ish boshlashga kelishib olindi. Dastlabki bosqichda bosh reja ishlab chiqiladi. So‘nggi tasdiqlangan bosh reja asosida loyihani amalga oshirish uchun Yevropa banklarining imtiyozli kredit mablag‘larini jalb etish bo‘yicha muzokaralar o‘tkaziladi [14].

Anklav hududga borish va u yerda turizmni rivojlantirish uchun eng katta ko‘makchi omillardan biri chegara nazorat o‘tkazish posti hisobalandi. Mazkur masala yuzasidan islohotlar o‘tkazilmasa, turizm rivojlanishi qiyin masalaga aylanadi. Ikkala davlat o‘rtasida olib borilgan do‘stona munosabatlar natijasida 2023-yil 1-sentabrdan ikki davlat fuqarolari uchun ID kartalar orqali chegaralarni kesib o‘tishga ruxsat berildi. Bu ham nazorat ishlarini tezlashtirgan bo‘lsa, 2024-yil 25-iyuldan Farg‘ona viloyati bochxona boshqarmasining Farg‘ona chegara posti “Oq qiya” bojaxona punkti 24 soatlik ish tizimiga o‘tkazildi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad Farg‘ona tumani Shohimardon qishlog‘iga sayyoohlар qatnovini oshirish, transport vositalarining uzun navbatlarda qolib ketishlarini oldini olish. Avvallari ish soati 6:00 dan 22:00 gacha davom etgan bo‘lsa, hozir bu tizim o‘zgartitilib, jarayon mukammallashtirildi. Shohimardon qishlog‘iga “Farg‘ona” hamda “Oq qiya” chegara bojaxona postidan bir kunda o‘rtacha 10 mingdan ortiq fuqaro o‘tish imkoniyati mavjud [7]. Turizmni rivojlantirish uchun yaratilgan bunday keng ko‘lamli imkoniyatlar Shohimardonni yaqin yillar ichida Farg‘ona viloyating turiz markazidan biriga aylansa, ajab emas!

Xulosa. Ushbu o‘zgarishlar O‘zbekiston anklav hududlarining turizm salohiyatini nafaqat milliy darajada, balki mintaqaviy ko‘lamba kuchaytirishiga ishora qiladi. Shuningdek, Shohimardon tajribasi anklavlar geografiyasi va geosiyosiy o‘ziga xosliklarining turizm rivojiga ijobiy ta’sirini o‘rganish uchun namunaviy model bo‘lib xizmat qiladi. Kelajakda ikki davlat o‘rtasidagi barqaror munosabatlar va xalqaro investitsiyalar jalb qilinishi bilan Shohimardon Farg‘ona vodiysining eng yetakchi turizm markazlaridan biriga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulahatov N., G‘oziyev T. Shohimardon. – T.: Yangi asr avlod, 2010. – 592 b.
2. Abdulahatov N., Zohidov F. Farg‘ona tumani tarixi. – Farg‘ona, 2013. – 307 b.
3. Alao A. Natural Resources and Conflict in Africa The Tragedy of Endowment. – Rochestr: Boydell & Brewer Print, 2007. – P. 376.
4. Fazendeiro B. Political Geography. – Prague: "Wiley", 1996. – P. 744.

5. Jumaxanov Sh.Z. Markaziy Osiyo anklav/eksklav hududlarini iqtisodiy geografik va siyosiy geografik tadqiq etishning metodologik asoslari // g.f.d. (DSc) ilmiy dar. olish uchun taqdim. et. diss. – T., 2023. – 230 b.
6. Jumaxanov.Sh.Z., Toshpo‘latov A.M. Anklavlар nazariyasi: geografik va geosiyosiy tahlil [Monografiya]. – Namangan: Mashrab, 2021. – 152 b.
7. Muminov D.G. Ecotourism Opportunities In Fergona Region // Diversity Research: Journal of Analysis and Trends. – Valdivia (Chile), 2024. Issue 2, volume 6. – Pp. 8-12. <https://academiaone.org/index.php/2/article/view/814>
8. Megoran N. Nationalism in Central Asia: a biography of the Uzbekistan-Kyrgyzstan boundary // Nationalities Papers. – Pittsburg, 2018. – P. 368.
9. Pirnazarov R.T., Turg‘unboyeva M.A. Shohimardonsov havzasi: tabiatи va turistik istiqbollari // Лучшие интеллектуальные исследования, 2024. Journal 20 (5), 50–61.
10. Rozhkov-Yuryevsky, Y. The concepts of enclave and exclave and their use in the political and geographical characteristic of the Kaliningrad region. – Kaliningrad: Baltica, 2013. – Pp. 113-123.
11. Toshpo‘latov A.M. Anklav/eksklav hududlar: geografik va geosiyosiy tahlil // NamDU iqtidorli talabalar ilmiy axborotnomasi, №3 / Bosh muharrir: S.T.Turg‘unov. – Namangan, 2023. – 290-296 b.
12. Лукичев А. Б. Сущность устойчивого и экологического туризма // Российский Журнал Экотуризма. – Москва, 2011. — № 1. – Стр. 3-6.

Internet resurslari:

13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 843-sonli Qarori. 03.10.2019. URL: <https://lex.uz/docs/-4537410>
14. Shohimardon – yangi o‘zgarishlar maskani. O‘zbekiston Axborot agentligi. URL: <https://uza.uz/oz/posts/shohimardonning-yangi-davri-boshlanmoqda>
15. Farg‘onadan Shohimardonga avtobus qatnovi tiklandi. 10.05.2017. URL: <https://kun.uz/news/2017/05/10/fargonadan-soimardonga-avtobus-katnovi-tiklandi>